

Amudaryo havzasidagi muzliklarni dinamikasini o‘rganishning maqsadi va dolzarbligi

Urganch davlat universiteti magistranti
O‘ktamov Murodjon G‘afur o‘g‘li

Iqlim o‘zgarishi oqibatida jahonda suv resurslari taqchilligi yildan yilga ortib bormoqda. Buning natijasida suv resurslari miqdor va sifat jihatdan keskin salbiy o‘zgarishlarga uchramoqda. Ayniqsa, ariq iqlimli O‘zbekiston hududida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday yirik havzalardan biri Amudaryo havzasi bo‘lib Markaziy Osiyoning eng muhim daryolaridan hisoblanadi. U mintaqaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu havza O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston kabi davlatlar uchun suv resurslarining asosiy manbai hisoblanadi. Amudaryo havzasidagi suv resurslarining asosiy qismi tog‘li hududlardagi muzliklar va qor qoplamalaridan hosil bo‘ladi. Shu sababli, muzliklarning dinamik holati va ularning erishi nafaqat havzaning suv ta‘minoti, balki butun mintaqaning ekologik barqarorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Suv resurslarini barqarorligini ta‘minlash maqsadida muzliklarni monitoringini olib borishni taqazo qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-son farmonida “Suv resurslarini prognozlash, ularning hisobini yuritish va ma‘lumotlar bazasini shakllantirish tizimini takomillashtirishni ta‘minlash”l yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada O‘zbekiston va unga tutash hududlardagi tog‘ daryolari gidrologik rejimini o‘rganish, ularning muzlik suv zaxirasini miqdoriy baholash masalalariga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Amudaryo havzasida iqlim o‘zgarishining muzliklar maydoniga va atrof-muhit holatiga ta‘sirini hamda xavfli tabiiy geografik jarayonlarning ro‘y berishini GAT texnologiyalari yordamida monitoring qilish va modellashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Global iqlim o‘zgarishi muammolari va O‘zbekiston tog‘larida muzliklar hamda qor qoplamining suv resurslari o‘zgarishi tendensiyalarini tadqiq etish bo‘yicha quyidagi ishlar nazarda tutilgan. Tog‘ muzliklari yillik massa balansining o‘zgarishi

doimiy monitoringini olib borish. Iqlim o'zgarishi sharoitida muzliklarning to'yinishi va ablatsiyasining miqdoriy ko'rsatkichlari hamda ularning yuzalarida qor chizig'i balandligining mavsumiy o'zgarishlarini tadqiq etish. Muzliklar harakatining mexanik, geodezik va fotogrammetrik usullar yordamida aniqlangan siljishi tezliklarini o'rganish. Muzliklarning monitoring natijalari asosida ularning shakl va o'lcham ko'rsatkichlarini aniqlash. Muzliklar katalogini yangilashga imkon beradigan glatsio-gidrologik ma'lumotlar bazasini yaratish va uni Umumjahon muzliklar monitoringi xizmati ma'lumotlar bazasi bilan integrallashtirish. Tog' muzliklarining holatini ifodalovchi mavzuli karta-sxemalar yaratish. Tog' muzliklari holatini o'zgarishining daryolar suv resurslari shakllanishiga ta'sirini modelashtirish.

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi tufayli Amudaryo havzasidagi muzliklarning tez sur'atda erishi kuzatilmoqda. Bu hodisa nafaqat suv resurslarining kamayishiga, balki havzaning ekologik muvozanatining buzilishiga ham olib kelmoqda. Muzliklarning dinamikasini o'rganish va ularning holatini monitoring qilish shu sababli zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. Zamonaviy geofazoviy texnologiyalar (sun'iy yo'ldoshlar, Lidar, InSAR, GPS va boshqalar) muzliklarning dinamikasini yuqori aniqlikda va real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalar orqali muzliklarning maydoni, qalinligi, harakati va ularning erishi sur'ati haqida aniq ma'lumotlar olish, suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashish va ekologik xavflarni oldini olish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi

Amudaryo havzasidagi muzliklarning dinamik holatini geofazoviy texnologiyalar yordamida monitoring qilishdan ko'zlangan maqsad ularning suv resurslariga, atrof-muhitga va iqlim o'zgarishiga ta'sirini baholash. Bu maqsadga erishish orqali suv resurslarini samarali boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashish va ekologik xavflarni oldini olish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 1-avgustdagi “Suv resurslarini muhofaza qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanish, suvni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaning qonunchilik bazasini mustahkamlashga oid masalalar haqida”2 gi KQ-547-IV-son qarori
2. “O‘zbekiston tog‘ muzliklari” uslubiy qo‘llanma A.Nizomov, A.A.Nugmanova, A.R.Matnazarov Toshkent 2016
3. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. <<O‘qituvchi> nashri. T. 1991
4. Табiiй комплексларнинг барқарорлигига инсон хўжалик фаолиятининг таъсири. Тўплам «Ўзбекистонда география фанининг долзарб муаммолари». Термиз-2016. Республика илмий амалий конференцияси материаллари. 35-37 б.
5. Гвоздецкий Н.А. Среднеазиатская горная страна. В.кн. Физико-географическое районирование 1968.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING